ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 10 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

O'RTA OSIYO XALQLARI AN'ANAVIY LIBOSLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA FARQLARI

Ismailova Ayjamal Jalgasovna
Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi.
Qurbanbaeva Sveta Quanishbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23891260

Annotatsiya. *Maqolada O'rta Osiyo xalqlari (qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik) an'anaviy liboslarining o'ziga xos jihatlari va o'zaro farqlari qoraqalpoq libosi misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Libosning shakllanishiga xo'jalik yuritish tarzi, tarixiy-madaniy aloqalar va qo'shni xalqlar ta'siri yoritiladi. Bosh kiyim, taqinchoq, kashta, rang va ramzlardagi umumiy hamda xos tomonlar ko'rsatiladi. Natijalar etnografiya va madaniyatshunoslikda hamda milliy merosni saqlashda foydalanilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, an'anaviy libos, qoraqalpoq libosi, saukele, kiymeshek, etnik o'ziga xoslik, ramz, madaniy meros.*

Аннотация. *В статье на примере каракалпакского костюма проводится сравнительный анализ особенностей и различий традиционной одежды народов Центральной Азии (каракалпаков, узбеков, казахов, киргизов, туркмен, таджиков).*

Рассматривается влияние хозяйственного уклада, историко-культурных связей и соседних народов на формирование костюма. Выявляются общие и специфические черты в головных уборах, украшениях, вышивке, цвете и символике. Результаты могут быть использованы в этнографии, культурологии и при сохранении национального наследия.

Ключевые слова: *Центральная Азия, традиционная одежда, каракалпакский костюм, саукеле, киймешек, этническая идентичность, символика, культурное наследие.*

Abstract. *Using the Karakalpak costume as a case study, the article offers a comparative analysis of the distinctive features and differences in the traditional clothing of the peoples of Central Asia (Karakalpaks, Uzbeks, Kazakhs, Kyrgyz, Turkmen and Tajiks). It examines how the economic way of life, historical-cultural contacts and neighbouring peoples shaped traditional dress. Common and specific features in headwear, jewellery, embroidery, colour and symbolism are identified. The findings may be applied in ethnography and cultural studies and in the preservation of national heritage.*

Keywords: *Central Asia, traditional clothing, Karakalpak costume, saukele, kiymeshek, ethnic identity, symbolism, cultural heritage.*

Kiyim-bosh moddiy madaniyatning muhim elementlaridan biri bo'lib, xalqning tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi o'ziga xosligini bilishda uning ahamiyati katta [5]. An'anaviy libos xalqning xo'jalik turmushi, estetik didi, ijtimoiy tuzilishi va tarixiy xotirasini o'zida mujassam etadi. O'rta Osiyo kiyim madaniyati qadimdan Baqtriya, So'g'd va Xorazm kabi davlatlar hududida shakllangan, antik davr kiyimiga skif, ellin va hind ta'siri sezilgan bo'lsa-da, mahalliy xususiyatlar ham saqlangan [8, 249-b.].

Mintaqa xalqlari uzoq asrlar davomida yonma-yon yashagani va o'zaro aloqada bo'lgani sababli ularning kiyimida ko'plab o'xshashliklar uchraydi, shu bilan birga har bir xalq libosi shakli, bezagi va ramziy ma'nosi bilan ajralib turadi. Bu o'xshashlik va farqlarni qoraqalpoq libosi misolida ko'rish qulay, chunki qoraqalpoqlarning etnik tarixi Orol bo'yi, Xorazm, Sirdaryo, Volga bo'yi va Kavkaz bilan bog'liq va ularning libosida turli madaniy qatlamlar uyg'unlashgan [2].

Libosdagi umumiy jihatlar avvalo qo'shni xalqlar o'rtasidagi uzoq muloqot natijasidir. A.S. Morozovaning ko'rsatishicha, XX asr boshida qoraqalpoqlarning xalq kiyimi shimoliy Xorazm turiga mansub bo'lib, shunday kiyimni Xorazm vohasining shimoliy tumanlarida yashovchi o'zbeklar, qoraqalpoqlar va ayrim turkman guruhlari ham kiygan. Muallif bu umumiylikni xalqlarning o'zaro ta'siri va ayrim hollarda etnik yaqinligi bilan izohlaydi [2, 11-b.]. Umumiy asos kiyim bichimida ham ko'rinadi: barcha yoshdagi erkaklar kiyimi, shuningdek ayollarning ichki ko'ylagi tunikasimon bichimda bo'lgan, bu bichimning qadimiyligidan dalolat beradi [8, 286, 299-b.]. Taqinchoqlarda ham shunday manzara kuzatiladi. Masalan, xayqel (ko'krak taqinchog'i) XIX asr va XX asr boshlarida qoraqalpoq, o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz va boshqa xalqlarda, hatto Urol bo'yi boshqirdlarida ham uchragan va tumor vazifasini bajargan [1, 71-b.]. Qurbaqa tasviri o'zbek, turkman va qoraqalpoq amaliy san'atida bezak yoki taqinchoq shaklida saqlangan [1, 76-b.]. Erkaklar kiyimida bu umumiylik yanada yaqqol: XVIII asrdan boshlab manbalarda qoraqalpoq va o'zbek erkaklari kiyimi bir xil ekani ta'kidlanadi, keyinchalik qoraqalpoqlarda baland namat bosh kiyim (bo'rk) yo'qolib, barcha erkaklar qora mo'ynali "kurash" telpagini kiyadigan bo'lgan [2, 12-b.]. Naborli kamar esa o'zbek, qozoq va boshqa turkiy xalqlar erkaklarining tantanali kiyimi tarkibiga kirgan [1, 94-b.].

O'zbek libosining o'zi ham bir xil emas: Toshkent, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Xorazm hududlarida kiyim shakli, matosi va rangi bir-biridan farq qilgan, shu bois N. Sodiqova kabi olimlar hududiy namunalarni alohida o'rgangan [7, 20-b.]. Buxoroda baxmaldan tikilib kumush zardo'zi kashta bilan bezatilgan chopon, ayollarning qizil baxmal mursagi va nimshoyi adrasdan tikilgan ishtoni, Samarqandda yengil ipak shoyidan batik usulida bezatilgan ko'ylak uchraydi [7, 28-32-b.]. Xorazmda erkaklar chopon va chakmonni, ayollar esa yengining uchida kashtali tasmasi bo'lgan ko'ylakni kiygan [8, 290, 300-b.]. Matolar ham ijtimoiy tabaqani ko'rsatgan: shoyi, xonatlas, adras Buxoro, Samarqand, Namangan kabi shaharlarda to'qilib, aslzodalar kiyimiga ketgan, kambag'allar esa bo'z, olacha kabi ip matolar kiygan [8, 285-b.]. Shahar va boy qishloq ayollari paranji kiyib, yuzini otning yolidan to'qilgan chachvon bilan berkitgan [8, 295-296-b.]. Boy ayollar bayramda ketma-ket uch ko'ylak kiygan, Buxoro va Samarqandda esa boylar orasida ko'ylaklar soni yettitagacha yetgan [8, 289-290-b.]. Demak, o'troq o'zbek va tojik muhitida libos ko'proq ipak, atlas, adras va baxmal kabi shahar hunarmandchiligi mahsulotlariga tayangan, qoraqalpoq libosida esa kashta, kumush va zargarlik buyumlari yetakchi o'rin tutgan.

Biroq bu o'xshashliklar xalqlar libosini bir-biriga aylantirmagan, aksincha, ularning har birida o'ziga xos xususiyatlar saqlangan. Eng yaqqol farq bosh kiyimlarda ko'rinadi. Ayollarning dubulg'asimon to'y bosh kiyimi saukele qoraqalpoq, qozoq va qirg'izlarda bo'lgan, ammo qozoq saukelesi baland konussimon yoki silindrsimon yuqori qismi bilan, janubiy qirg'iz saukelesi esa

qoraqalpoq saukelesiga yaqinligi bilan ajralib turadi [1, 64-b.]. Xorazm o'zbeklarining "shevkeli" bosh kiyimi qoraqalpoq saukelesiga juda o'xshash, qozoq saukelesi esa undan sezilarli farq qiladi [1, 105-b.]. A.S. Morozova qoraqalpoq saukelesi shakli, materiali va bezagi jihatidan chuvash va boshqird bosh kiyimlariga yaqin ekanini, qozoq, qirg'iz va turkman ayollarining baland bosh kiyimlaridan esa keskin farq qilishini yozadi [2, 11-b.]. O'zbek ayollarida salla ostidan kiyiladigan, yuz va ko'kragni yopuvchi "lachak" qozoq va qoraqalpoq ayollarining kiymeshegiga o'xshagan [8, 297-b.]. Qarluq o'zbek ayollari qisqa chopon "kurta"ni boshga tashlab yurgan, Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoqlar "jegde"ni, turkmanlar esa "chirpi" va "yelek"ni kiygan [8, 297-b.]. Erkaklar bosh kiyimida ham farq bor. "Kurash" atamasi O'rta Osiyoning boshqa turkiy xalqlari tilida uchramaydi, Xorazm o'zbeklari va turkmanlar bunday telpakni "chugurma" deb ataydi [2, 12-b.], Xorazmda uzun mo'ynali qo'y terisidan qilingan katta yumaloq "chugurma" kiyilgan [8, 302-b.].

Farg'ona vodiysi qishloq aholisi esa namatdan qilingan qirg'iz qalpog'ini, qishda qozoqlarnikiga o'xshash mo'ynali "tumoq"ni kiygan, bu esa qo'shni xalqlar kiyimining o'zaro almashinuvidan dalolat beradi [8, 302-b.]. XIX asr sayyohlarining kuzatuvlariga ko'ra, qoraqalpoqlar qirg'izlarning malaxayi va o'zbek hamda tojiklarning salla-choriga emas, qo'y terisidan tikilgan telpak kiyishgan [6].

Ayollar kiyimidagi farqlar ham ahamiyatli. Kiymeshek, ya'ni turmush qurgan ayolning boshi, bo'yni, ko'kragi va orqasini yopuvchi bosh kiyim, qozoqlarda ham bo'lgan, lekin qoraqalpoq kiymeshegi mato asosiga, qozoqniki esa paxta matoga xoch tikuv bilan tikilgan [1, 51-b.]. Qozoq va qirg'izlarda uchraydigan kiymeshek qoraqalpoqlarda eng arxaik shaklda saqlanib qolgan [2, 11-b.]. Qoraqalpoqlarning ko'k ko'ylagi (kok koylek) esa boshqa O'rta Osiyo xalqlarida o'xshashi topilmagan noyob libos bo'lib, yengil kashta bilan qizlar va kelinlar bayramda kiygan, kashtasiz ko'k ko'ylak esa motam kuni kiyilgan [1, 51-52-b.]. Kashta asosan ayollar kiyimi bilan bog'liq bo'lib, unda ayol yoshi hisobga olingan: qizil rangdagi kiyim qizlar va yosh ayollarga, oqartirilmagan paxta matoga kashta tikilgan kiyim keksa ayollarga xos bo'lgan [1, 50-b.]. O'zbek ayollarining ustki kiyimi mursak ham hududga qarab farqlangan: Toshkentda "mursak", Samarqandda "munisak" yoki "kaltacha", Farg'onada "munisak", Buxoro va Shahrisabzda "kaltacha" deb atalgan, yengining uzunligi va kengligi ham o'zgargan [8, 291-294-b.]. Qoraqalpoq naqshlari orasida "muyiz" (shox), "sirg'a" (zirak) va "tumor" kabi nomlar uchraydi, bu naqshlarning chorvachilik, taqinchoq va e'tiqod bilan bog'liqligini ko'rsatadi [3]. Zargarlikda ham farq bor: qoraqalpoq kamarlari ajurli, tilla suvi yuritilgan quyma detallar va o'simliksimon naqshlar bilan, rangli toshlarsiz bezatilgan, o'zbek kamarlari esa bo'rtma kumush naqshlar va feruza qo'yilgan bo'lgan [1, 94-b.]. Peshonaga taqiladigan taqinchoq Toshkent, Buxoro va Farg'onada "tillaqosh", Xorazmda "xosmaduzi" deb atalgan [8, 298-b.].

Bu farqlarning sabablari xalqlarning xo'jalik yuritish usuli va tarixiy yo'liga borib taqaladi. Qoraqalpoqlar libosida qadimgi saka madaniyatiga oid elementlar (kamzul "beshbent", saukele, kiymeshek, belbog'), shuningdek, old Osiyo madaniyatining izlari (zumrad va marjonning ko'p ishlatilishi, qora va qizil ranglar uyg'unligi, xochsimon naqsh) saqlangan. Ko'chmanchi turkiy-mo'g'ul madaniyati ta'siri esa kam, o'troq dehqon xalqlar ta'siri ko'proq namoyon bo'ladi: Sirdaryo quyi oqimida bo'lgan davrda o'rta osiyocha chopon keng tarqalgan, saukele esa kundalik kiyimdan

to'y bosh kiyimiga aylangan [2, 11-12-b.]. Shu bois qoraqalpoq libosiga ko'chmanchi va o'troq madaniyat belgilari qo'shilgan, bu esa uning qozoq, turkman yoki o'zbek libosidan farqini belgilaydi. Libosning ijtimoiy vazifasi ham hududga qarab farq qilgan. Qoraqalpoqlarning shimoliy tumanlarida kiyim zaxirasi kam bo'lib, kundalik kiyim boylik darajasini ko'rsatmagan, lekin bayramdagi ayollar kiyimi mulkiy tafovutni yaqqol ifodalagan. Dehqonchilik rivojlangan markaziy tumanlarda esa kiyim qimmatroq matodan tikilgan, uning toza va sifatli bo'lishi to'kinlik belgisi hisoblangan [2, 13-b.]. Janubiy tumanlarda o'zbeklar bilan yaqin aloqa natijasida qoraqalpoq libosi o'ziga xosligining ko'p qismini yo'qotgan [2, 13-b.]. Rus bosqinidan keyin fabrika matolari (chit, satin) va Rossiyadan kirgan kamzul kabi yangi kiyim turlari tarqalib, an'anaviy libosga ta'sir ko'rsatgan [8, 285, 301-b.]. Ranglar ramzi ham xalqdan xalqqa o'zgargan.

Qoraqalpoq ayollari uchun oq rang qarilik va donolik belgisi bo'lgan, hozirgi to'y libosidagi oq rang esa yevropacha poklik ma'nosini olgan [1, 6-b.].

Zamonaviy davrda an'anaviy libos kundalik hayotdan siqib chiqarilib, asosan keksa avlodda saqlanib qolgan, hozirgi kiyim uslubi asosan yevropacha [4]. Shunga qaramay, mintaqada milliy libosni tiklash va modaga moslashtirish jarayoni davom etmoqda. Bunda an'anaviy bilimlar uzluksizligining uzilishi sababli ayrim belgilar (masalan, libos rangi va ma'nosi) noto'g'ri talqin qilinmoqda [1, 6-b.]. Shu sababli an'anaviy libosni ilmiy asosda o'rganish, uning xalqlar o'rtasidagi umumiy va xos tomonlarini aniqlash milliy merosni to'g'ri saqlash va yoshlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqlari libosidagi o'xshashliklar ularning qo'shnichiligi, umumiy tarixiy ildizlari va o'zaro madaniy aloqalari natijasidir. Farqlari esa xo'jalik yuritish tarzi, etnik tarkibi va tarixiy taqdiri bilan belgilanadi. Bosh kiyim, kashta, taqinchoq va ranglar ramzi har bir xalqning etnik o'ziga xosligini ko'rsatuvchi eng barqaror belgilar sifatida saqlangan.

Adabiyotlar

1. Алламуратов А. Каракалпакское декоративно-прикладное искусство. Вопросы художественного своеобразия. – Самарканд: МИЦАИ, 2019. – 220 с. (Архивные материалы Центральной Азии, т. VI).
2. Морозова А.С. Культура домашнего быта каракалпаков начала XX века (К вопросу этногенеза): Автореф. дис. … канд. ист. наук. – Ташкент, 1955.
3. Есбоганова Б. Из истории орнаментального искусства каракалпаков. – Нукус: Нукусский государственный педагогический институт.
4. Мамедов Н. Каракалпакская литература. – Баку: Мутарджим, 2007.
5. Madaniyatshunoslik asoslari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent, 2006.
6. Материалы по истории каракалпаков: Сборник. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1935. (Труды Института востоковедения, т. VII).
7. Атаханова Ф.З. Замонавий ўзбек либос дизайнида анъаналар ва инновация: Монография. – Тошкент: Lesson Press, 2022. – 235 б.
8. Хасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи: Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 320 б.